



FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-iyun*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8496** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iuynga nisbatan **1029** taga kamaygan (o'sish sur'ati **89,2** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **154** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8342** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **10 640,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,6** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **909,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9 731,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,5** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **903,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,5** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


| | Jami, mlrd. so'm | 2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------|---------------------|---|------------------------------------|---|--|---|
| Farg'na viloyati | 10 640,4 | 106,6 | 909,0 | 108,0 | 9 731,4 | 106,5 |
| Shaharlar | | | | | | |
| Farg'ona | 1715,3 | 108,7 | 285,4 | 105,2 | 1429,9 | 109,4 |
| Qo'qon | 2049,9 | 108,5 | 148,0 | 139,3 | 1901,9 | 106,7 |
| Quvasoy | 184,4 | 106,9 | 17,3 | 79,1 | 167,0 | 110,9 |
| Marg'ilon | 1493,1 | 106,7 | 36,6 | 123,6 | 1456,4 | 106,3 |
| Tumanlar | | | | | | |
| Oltiariq | 372,0 | 106,3 | 25,3 | 99,0 | 346,7 | 106,9 |
| Qo'shtepa | 268,4 | 104,0 | 5,0 | 121,1 | 263,4 | 103,7 |
| Bag'dod | 266,3 | 106,1 | 8,8 | 93,9 | 257,5 | 106,6 |
| Buvayda | 509,9 | 103,9 | 13,1 | 76,3 | 496,8 | 104,9 |
| Beshariq | 416,6 | 106,6 | 10,1 | 99,8 | 406,5 | 106,7 |
| Quva | 532,2 | 106,6 | 10,8 | 81,6 | 521,4 | 107,3 |
| Uchko'prik | 1037,7 | 105,4 | 302,3 | 105,4 | 735,4 | 105,3 |
| Rishton | 317,1 | 104,3 | 10,5 | 91,5 | 306,6 | 104,8 |
| So'x | 122,9 | 102,2 | 1,8 | 105,4 | 121,1 | 102,2 |
| Toshloq | 241,6 | 105,6 | 4,4 | 113,4 | 237,3 | 105,4 |
| O'zbekiston | 228,4 | 105,4 | 8,8 | 96,4 | 219,5 | 105,8 |
| Farg'ona | 325,0 | 104,5 | 5,0 | 116,0 | 320,1 | 104,4 |
| Dang'ara | 197,0 | 104,7 | 7,6 | 107,8 | 189,4 | 104,6 |
| Furqat | 160,1 | 103,8 | 3,9 | 94,7 | 156,2 | 104,1 |
| Yozyovon | 202,6 | 105,6 | 4,3 | 90,0 | 198,2 | 106,0 |

2023-yilning yanvar-iyun oylarida 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**108,7** %), Qo'qon (**108,5**) va Quvasoy (**106,9**) shaxarlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-iyun, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda yanvar-iyun oylarida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **107,6 %** ni yoki **8 935,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati **106,6 %** ni tashkil qildi.



JAMI
mlrd. so'm

Jamiga nisbatan tovar aylanmasi ulushi (foizda)

| Farg'ona viloyati | JAMI mlrd. so'm | Jamiga nisbatan tovar aylanmasi ulushi (foizda) |
|-------------------|-----------------|---|
| Farg'ona sh. | 1715,3 | 16,1 |
| Qo'qon | 2049,9 | 19,3 |
| Quvasoy | 184,4 | 1,7 |
| Marg'ilon | 1493,1 | 14,0 |
| tumanlar | | |
| Oltiariq t. | 372,0 | 3,5 |
| Qo'shtepa | 268,4 | 2,5 |
| Bag'dod | 266,3 | 2,5 |
| Buvayda | 509,9 | 4,8 |
| Beshariq | 416,6 | 3,9 |
| Quva | 532,2 | 5,0 |
| Uchko'prik | 1037,7 | 9,8 |
| Rishton | 317,1 | 3,0 |
| So'x | 122,9 | 1,2 |
| Toshloq | 241,6 | 2,3 |
| O'zbekiston | 228,4 | 2,1 |
| Farg'ona | 325,0 | 3,1 |
| Dang'ara | 197,0 | 1,9 |
| Furqat | 160,1 | 1,5 |
| Yozyovon | 202,6 | 1,9 |

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

Eng yuqori hajm, % da



1 Qo'qon – 19,3

2 Farg'ona – 16,1

3 Marg'ilon – 14,0

Eng quyi hajm, % da



1 So'x – 1,2

2 Furqat – 1,5

3 Dang'ara – 1,9

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qo'qon shaxari **19,3 %** bilan **2 049,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, So'x tumani **1,2 %** bilan **122,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 731,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **6,5 %** ga ko'paydi Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,0 %** ga o'sdi va **909,0** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,5 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x (98,5 %)** **Farg'ona (98,4 %)** va **Toshloq (98,2 %)** tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik tumani (29,1 %)**, **Farg'ona (16,6 %)** va **Quvasoy (9,4 %)** shaharlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, foizda |
|-------------------------|----------------------|---------------------------|
| Farg'na viloyati | 2 663,1 | 104,4 |
| Shaharlar | | |
| Farg'ona | 5 421,4 | 103,3 |
| Qo'qon | 6 721,0 | 92,8 |
| Quvasoy | 1 854,7 | 104,6 |
| Marg'ilon | 6 027,7 | 104,9 |
| Tumanlar | | |
| Oltiariq | 1 654,6 | 104,1 |
| Qo'shtepa | 1 310,5 | 101,3 |
| Bag'dod | 1 162,8 | 104,0 |
| Buvayda | 2 100,1 | 101,6 |
| Beshariq | 1 741,8 | 104,8 |
| Quva | 1 957,2 | 104,7 |
| Uchko'prik | 4 371,0 | 105,9 |
| Rishton | 1 486,7 | 102,3 |
| So'x | 1 493,7 | 100,3 |
| Toshloq | 1 122,4 | 103,3 |
| O'zbekiston | 985,6 | 112,5 |
| Farg'ona | 1 491,0 | 106,5 |
| Dang'ara | 1 134,2 | 109,5 |
| Furqat | 1 280,4 | 101,6 |
| Yozyovon | 1 719,6 | 103,3 |

2023- yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 663,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **104,4** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon(6 721,0 mingso'm) Marg'ilon(6 027,7 ming so'm), va Farg'ona (5 421,4 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **903,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,5** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **544,3** mlrd. so'mni (**128,8** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **359,5** mlrd so'mni tashkil etdi (**89,3** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda | Chorva bozorlari, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda |
|-------------------------|------------------|---|------------------------------|---|------------------------------|---|
| Farg'na viloyati | 903,8 | 109,5 | 544,3 | 128,8 | 359,5 | 89,3 |
| Shaharlar | | | | | | |
| Farg'ona | 97,6 | 127,6 | 91,5 | 136,3 | 6,1 | 65,4 |
| Qo'qon | 104,0 | 108,8 | 59,3 | 108,2 | 44,7 | 109,7 |
| Quvasoy | 22,9 | 84,3 | 8,3 | 81,0 | 14,6 | 86,2 |
| Marg'ilon | 107,0 | 114,1 | 69,7 | 125,6 | 37,2 | 97,4 |
| Tumanlar | | | | | | |
| Oltiariq | 23,2 | 58,6 | 10,4 | 53,1 | 12,8 | 64,1 |
| Qo'shtepa | 48,5 | 187,6 | 30,5 | 227,4 | 18,0 | 144,6 |
| Bag'dod | 27,3 | 68,1 | 15,7 | 90,3 | 11,6 | 51,0 |
| Buvayda | 118,8 | 221,6 | 87,5 | 438,2 | 31,3 | 93,0 |
| Beshariq | 100,0 | 135,2 | 52,5 | 162,5 | 47,4 | 114,0 |
| Quva | 63,0 | 137,4 | 44,5 | 275,9 | 18,5 | 62,4 |
| Uchko'prik | 31,5 | 117,0 | 6,7 | 105,1 | 24,8 | 120,7 |
| Rishton | 49,2 | 90,0 | 21,0 | 149,1 | 28,2 | 69,5 |
| So'x | 13,4 | 52,4 | 8,3 | 150,6 | 5,0 | 25,3 |
| Toshloq | 20,4 | 238,0 | 6,6 | 178,9 | 13,7 | 282,9 |
| O'zbekiston | 19,8 | 60,0 | 9,7 | 45,3 | 10,2 | 86,6 |
| Farg'ona | 19,4 | 41,9 | 12,3 | 36,3 | 7,1 | 57,1 |
| Dang'ara | 5,1 | 31,0 | 1,3 | 10,0 | 3,8 | 102,7 |
| Furqat | 1,5 | 35,8 | 1,5 | 35,8 | - | - |
| Yozyovon | 31,2 | 82,4 | 6,8 | 47,5 | 24,4 | 103,6 |

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **544,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**201,9** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

| Qishloq xo'jaligi mahsulotlari | | Mrd. so'm |
|---|--|--------------|
|  | Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari | 201,9 |
|  | Non va non mahsulotlari | 36,4 |
|  | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) | 85,6 |
|  | Tovuq go'shti | 30,2 |
|  | Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) | 44,4 |
|  | Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) | 11,6 |
|  | Tuxum | 30,8 |
|  | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak | 13,2 |
|  | Ziravorlar | 17,1 |
|  | Tuzlamalar | 10,6 |
|  | Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi) | 8,7 |
| | Nooziq-ovqat tovarlari | 53,8 |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **359,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **287,3** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **64,8** mlrd. so‘mni, otlar – **4,7** mlrd. so‘mni, parrandalar – **2,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

| Chorva mollari (parrandalar) | | Mrld. so‘m |
|---|---|------------|
|  | 2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar | 155,0 |
|  | 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 71,4 |
|  | 1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar | 60,9 |
|  | Qo‘ylar | 63,1 |
|  | Otlar | 4,6 |
|  | Echkilar | 1,8 |
|  | Kurka, o‘rdak, g‘oz | 0,9 |
|  | Tovuqlar | 1,5 |
|  | Quyionlar | 0,1 |
|  | Qushlar | 0,2 |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 985** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyun holatiga nisbatan 486 taga kamaygan va **80,3 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 982** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarda umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **278,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,2 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **92,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yilning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so'm | 2022- yilning mos davriga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm | 2022- yilning mos davriga nisbatan, foizda |
|-------------------------|------------------|--|------------------------------|--|---|--|
| Farg'na viloyati | 278,9 | 107,2 | 19,8 | 187,7 | 259,1 | 103,8 |
| Shaharlar | | | | | | |
| Farg'ona | 108,1 | 117,5 | 19,8 | 187,7 | 88,3 | 108,5 |
| Qo'qon | 31,3 | 91,9 | - | - | 31,3 | 91,9 |
| Quvasoy | 10,9 | 100,3 | - | - | 10,9 | 100,3 |
| Marg'ilon | 40,3 | 105,9 | - | - | 40,3 | 105,9 |
| Tumanlar | | | | | | |
| Oltiariq | 7,3 | 113,4 | - | - | 7,3 | 113,4 |
| Qo'shtepa | 3,8 | 122,0 | - | - | 3,8 | 122,0 |
| Bag'dod | 2,5 | 86,9 | - | - | 2,5 | 86,9 |
| Buvayda | 4,0 | 99,8 | - | - | 4,0 | 99,8 |
| Beshariq | 8,2 | 112,7 | - | - | 8,2 | 112,7 |
| Quva | 12,3 | 117,6 | - | - | 12,3 | 117,6 |
| Uchko'prik | 5,7 | 94,5 | - | - | 5,7 | 94,5 |
| Rishton | 12,8 | 109,3 | - | - | 12,8 | 109,3 |
| So'x | 3,6 | 95,6 | - | - | 3,6 | 95,6 |
| Toshloq | 6,4 | 68,1 | - | - | 6,4 | 68,1 |
| O'zbekiston | 2,8 | 83,6 | - | - | 2,8 | 83,6 |
| Farg'ona | 8,8 | 135,0 | - | - | 8,8 | 135,0 |
| Dang'ara | 5,2 | 93,9 | - | - | 5,2 | 93,9 |
| Furqat | 2,0 | 102,3 | - | - | 2,0 | 102,3 |
| Yozyovon | 3,0 | 107,4 | - | - | 3,0 | 107,4 |

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 070,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **2,8 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **830,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **130,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 239,2** mlrd. so'mni o'tkan yilning mos davriga nisbatan **4,6 %** ga ko'paydi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, foizda |
|--------------------------|----------------------|---------------------------|
| Farg'ona viloyati | 2 070,0 | 97,2 |
| Shaharlar | | |
| Farg'ona | 589,4 | 74,8 |
| Qo'qon | 935,9 | 118,5 |
| Quvasoy | 8,0 | 98,4 |
| Marg'ilon | 150,2 | 136,0 |
| Tumanlar | | |
| Oltiariq | 9,7 | 97,5 |
| Qo'shtepa | 10,7 | 97,7 |
| Bag'dod | 28,0 | 97,4 |
| Buvayda | 12,7 | 99,0 |
| Beshariq | 0,9 | 99,9 |
| Quva | 9,6 | 97,5 |
| Uchko'prik | 13,0 | 99,9 |
| Rishton | 9,3 | 97,4 |
| So'x | 6,6 | 133,1 |
| Toshloq | 20,9 | 98,8 |
| O'zbekiston | 11,1 | 97,8 |
| Farg'ona | 7,0 | 98,2 |
| Dang'ara | 136,7 | 98,2 |
| Furqat | 33,4 | 99,2 |
| Yozyovon | 76,9 | 64,2 |


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**935,9** mlrd. so'm), Farg'ona (**589,4** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**150,2** mlrd. so'm) shahar lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7 397,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,5 %** ga o‘ydi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **6 974,1** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,5 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,3 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bag'dad tumani (**25,2 b.**), O'zbekiston (**2,0 b.**) va Dang'ara (**1,9 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4500 tani tashkil etib, 2022- yil 1- iul holatiga nisbatan 139 taga kamaygan, o'sish sur'ati 97,0 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4480 tani tashkil qildi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar , mlrd. so'm | 2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda | Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm | 2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda |
|------------------|------------------------|--|-------------------------------------|--|--|--|
| Farg'na viloyati | 7 397,6 | 109,5 | 423,5 | 201,1 | 6 974,1 | 106,5 |
| Shaharlar | | | | | | |
| Farg'ona | 1487,4 | 108,2 | 250,4 | 180,9 | 1236,9 | 100,0 |
| Qo'qon | 1422,8 | 119,1 | 28,6 | 87,1 | 1394,1 | 120,0 |
| Quvasoy | 229,3 | 117,0 | - | - | 229,3 | 117,0 |
| Marg'ilon | 1394,1 | 130,5 | - | - | 1291,0 | 120,8 |
| Tumanlar | | | | | | |
| Oltiariq | 233,3 | 106,0 | 38,2 | 110,7 | 195,1 | 105,1 |
| Qo'shtepa | 98,6 | 104,5 | - | - | 98,6 | 106,2 |
| Bag'dod | 87,1 | 112,6 | 0,4 | 2 5,2 b | 86,6 | 112,0 |
| Buvayda | 144,9 | 91,7 | - | - | 144,9 | 91,7 |
| Beshariq | 180,3 | 105,3 | - | - | 180,3 | 105,3 |
| Quva | 69,7 | 102,6 | - | - | 69,7 | 102,6 |
| Uchko'prik | 375,3 | 91,8 | 0,4 | 95,0 | 375,0 | 91,8 |
| Rishton | 27,6 | 106,4 | 0,6 | 96,2 | 27,0 | 106,6 |
| So'x | 7,9 | 57,1 | 0,3 | 71,2 | 7,6 | 56,7 |
| Toshloq | 1062,1 | 108,1 | - | - | 1062,1 | 108,1 |
| O'zbekiston | 108,2 | 87,1 | 0,4 | 2,0 b | 107,9 | 87,0 |
| Farg'ona | 190,7 | 91,4 | 0,4 | 30,4 | 190,3 | 91,8 |
| Dang'ara | 170,6 | 80,0 | 0,4 | 1,9 b | 170,3 | 79,9 |
| Furqat | 40,4 | 46,2 | - | - | 40,4 | 46,2 |
| Yozyovon | 67,4 | 95,7 | 0,4 | 174,0 | 67,0 | 95,5 |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi
Tel. 71-202-80-44 (45)**